

VARIKOZ KASSALIGINI DAVOLASHDA FITOTERAPIYA VA ZAMONAVIY INVAZIV USULLARNING O‘ZARO INTEGRATSIYA QILISH

**Muydinova Ruhshona Nurillo qizi ¹ Bahromova Sarvinoz Sherzotbek qizi ¹
Aripova Nargizaxon Kazbekovna ²**

¹Qo‘qon universiteti Andijon filiali Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo‘nalishi
talabalari

²Qo‘qon universiteti Andijon filiali Klinik fanlar kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada variko'z kasalligining etiologyasi va patofizologiyasini chuqur tahlil qilish orqali, ushbu kasallikni davolashda fitoterapiya va zamonaviy endovenoz davolash usullarini taqqoslash hamda samaradorligini tahlil qilish orqali, aholi orasida varikoz kasalligining tarqalishini kamaytirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Venoz yetishmovchilik, Flebologiya, Fitoterapiya, Endovenoz lazer ablyatsiyasi, Minimal-invaziv usulla, Skleroterapiya, Flebektomiya, Mexanik-kimyoviy ablyatsiya, Minimal invaziv, Venotonik preparatlar, Radiochastotali ablyatsiya, Sklerozant modda, Fototermal energiya.

"INTEGRATION OF PHYTOTHERAPY AND MODERN INVASIVE METHODS IN THE TREATMENT OF VARICOSE DISEASE"

**Muydinova Rukhshona Nurillo qizi¹, Bahromova Sarvinoz Sherzotbek
qizi¹, Aripova Nargizakhon Kazbekovna²**

¹Students of the General Medicine Department, Faculty of Medicine, Andijan
Branch of Kokand University

²Assistant at the Department of Clinical Sciences, Andijan Branch of Kokand
University

Abstract: This article aims to reduce the prevalence of varicose veins among the population by conducting an in-depth analysis of the etiology and

pathophysiology of varicose veins, comparing and analyzing the effectiveness of phytotherapy and modern endovenous treatment methods in the treatment of this disease.

Keywords: Venous insufficiency, Phlebology, Phytotherapy, Endovenous laser ablation, Minimally invasive method, Sclerotherapy, Phlebectomy, Mechanical-chemical ablation, Minimally invasive, Venotonic drugs, Radiofrequency ablation, Sclerosing agent, Photothermal energy

Kirish qismi. JSST ma'lumotlariga ko'ra varikoz kasalligi bugungi kunda keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, u sivilizatsiya kasalliklari ro'yxatiga kiritilgan. Venoz tizimning asosiy vazifalaridan biri qonning yurakka qaytishini ta'minlashdir. Agar venoz tizimni suyuqlik bilan to'ldirilgan va tik turgan quvur sifatida tasavvur qilsak, uning quyi qismida suyuqlik ustuni bosim hosil qiladi. Venoz qon oqimi yurakka qaytish jarayonida tortishish kuchiga qarshi harakat qiladi. Organizm bu sharoitlarga turli moslashuv mexanizmlari orqali moslashgan. Passiv holatda (yotgan, o'tirgan yoki tik turgan) venoz qon oqimini ta'minlashda sistolik bosim va nafas olish jarayoni muhim rol o'ynaydi. Nafas olayotganda pastki vena kavak tizimidagi bosim ortib, qon oqimi sekinlashadi. Chuqur nafas olayotganda yoki nafasni ushlab turganda, u deyarli to'xtaydi. Nafas chiqarish jarayonida esa qorin bo'shlig'idagi bosim pasayib, qon oqimini rag'batlantiruvchi assimilyatsiya mexanizmi ishga tushadi. Varikoz kasalligining rivojlanishiga turmush tarzi va kasb bilan bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq vaqt harakatsiz qolish yoki doimiy o'tirish talab qilinadigan kasblarda ishlash (masalan, transport haydovchilari) kasallik xavfini oshiradi. Dunyo miqyosida rivojlangan mamlakatlar aholisi orasida varikoz kasalligining turli belgilari 70 foizgacha odamda uchraydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, varikoz kasalligi ayollarning 35 foizi 25-45 yosh oralig'ida, erkaklarning esa 20 foizi 45-50 yosh oralig'ida ushbu kasallikdan aziyat chekadi. Bu esa venoz tizimning arterial tizimga nisbatan murakkab sharoitlarda ishlashini ko'rsatadi.

Varikoz kasalliklarini rivojlantiruvchi asosiy omillar. Genetika - biriktiruvchi to'qimalarning yetishmasligi tufayli qon tomirlari devorlarining kongenital zaifligi [1]; qattiq kiyim - inguinal burmalardagi asosiy tomirlarni siqib chiqarish qon aylanishini buzadi; semizlik - tana massasi indeksining 27 kg/m^2 gacha oshishi kasallik xavfini 33% ga oshiradi; harakatsiz ish va harakatsiz turmush tarzi, og'ir yuklarni ko'tarish bilan bog'liq ishlarda - statik holat oyoq-qo'llardagi qonning turg'unligini qo'zg'atadi;, noto'g'ri ovqatlanish muhim ozuqa moddalarining yetishmasligi qon tomirlari devorlarining tuzilishini tiklashni sekinlashtiradi; gormonal muvozanat varikoz tomirlarining rivojlanishi menopauza sindromi va osteoporozni davolash uchun gormonal kontratseptsialarni qo'llash; xomiladorlik - kattalashgan bachadon tomonidan retroperitoneal venalarning siqilishi qon aylanishini buzadi [2]. Varikoz rivojlantiruvchi kasalliklarini ikkilamchi omillarga esa quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: stress va asab kasalliklari, arterial- venoz anastomozlar, sportiv zo'riqishlar, noqulay kiyim va poyabzallarni kiyish. Yu.L.Shevchenko varikoz alomatlarini bevosita bosqichlarga bo'lib o'rganishni taklif qilgan. 1 va 2 bosqichlarda: oyoq, boldir va sonlarda venoz naqshlarning paydo bo'lishi, oyoqlarda og'irlik, bosim, o'rtacha og'riqlarni his qilish, tortishishlar (ayniqsa kechasi), ishdan keyin, kunning oxirida oyoqlarning shishishi, tez charchash. 3 va 4 bosqichlarda: shishlar; qon tomirli yulduzlar (telangioektaziyalar), turli og'riqlar (pulsli, mushaklarda qichishish, yurish paytida og'riq, vena bo'ylab og'riq, umumiy og'riq va oyoqlarning qaqshab og'rishi), boldir va tovon yonlari terisi yuzasida uzun varikoz venalar paydo bo'lishi, teri o'zgarishlari uning qurishi va pigmentatsiyasi, qorayishi va jigarrang dog'lar bilan qoplanishi. Bundan tashqari, bu belgilarga keyinchalik bir qator kasalliklar, xususan dermatit, ekzema va trofik kasalliklar, yaralar qo'shilishi mumkin[3]. Bugungi kunda ushbu kasallikni davolash uchun bir qancha metodlar va dori prepearatlari ishlab chiilmoqda. Biz o'z kuzatuv tadqiqotimizda bu kasallikni davolashdagi tabobat uslubidagi tabiiy vositalarni va zamonaviy tibbiyotda

qo'llanilayotlagan metodlarni o'zaro solishtirib o'rgandik. Quyida ular haqida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Fitoterapiya varikoz kasalligini yengillashtirishda yordam beruvchi tabiiy muolaja usullaridan biri hisoblanadi [4]. Hamda ushbu kasallikni simptomlarini yegillashtirishda quyidagi tabiiy mahsulotlarda foydalanish tavsiya etiladi. Andiz ildizi, mavrak va yalpizdan 100 g dan olib, aralashma tayyorlanadi. Uch osh qoshiq yig'mani kechqurun termosga solib, ustiga uch stakan qaynoq suv quyiladi. Ertalab damlama suzilib, kun davomida to'rt mahal ovqatdan yarim soat oldin 150 ml dan ichiladi. Anor gulining quritilgan shakli issiq suvda ivitilib, tomirlarning ko'karib ketgan joylariga qo'yiladi va ustidan bog'lanadi. Bu usul ko'karishlarni kamaytirishda samarali hisoblanadi. Bo'yimodaron, ruta va gazanda o'simliklaridan bir choy qoshiqdan aralashma tayyorlanadi. Ustiga bir stakan qaynoq suv quyib, yarim soat damlanadi. Kuniga ikki mahal, ertalab va kechqurun, ovqatdan 15 daqiqa oldin bir stakandan iste'mol qilinadi. Bundan tashqari, bo'yimodaron va limono't 10 g dan, tog'jumro't 15 g dan olinib, aralashtiriladi. Ustiga qaynoq suv quyib, bir soat damlanadi va kuniga ikki mahal iste'mol qilinadi. Qichitqio't bargidan ikki osh qoshiq olinib, ustiga yarim litr qaynoq suv quyiladi va bir soat davomida damlanadi. Ushbu damlama kuniga uch mahal yarim stakandan ichiladi. Parhezga rioya qilish (go'sht, baliq, qovurilgan taomlardan tiyilish) venalarning varikoz kengayishini davolashda yaxshi natija beradi. Qichitqio't, bo'yimodaron va ruta o'simliklaridan bir choy qoshiqdan olib, aralashma tayyorlanadi. Ustiga bir stakan qaynoq suv quyib, yarim soat damlanadi va kuniga ikki mahal iste'mol qilinadi. Dalachoy damlamasi ichish hamda vannalar qabul qilish venalar tugunlariga ijobiy ta'sir qiladi. Soxtakashtan, tol va eman novdalaridan 500 g dan olinib, sirli idishda yarim soat qaynatiladi. So'ngra, 200 g ittikanak, moychechak va dalachoy o'simliklari qo'shilib, bir kecha davomida damlanadi. Keyin uch buxanka javdar noni ham qaynatilib, har ikkala qaynatma vanna uchun ishlatiladi. Har kuni uyqu oldidan 30-40 daqiqa davomida qabul qilinadi. Suv harorati 38-40°C bo'lishi lozim. Yerqalampir asosida dorivor

bog‘lam tayyorlash uchun 100 g javdar uni, 50 g dog‘lanmagan yog‘ va ikki osh qoshiq qirg‘ichdan chiqarilgan yerqalampir aralashtiriladi. Ushbu aralashma og‘rigan joylarga surtiladi. Yashil, pishmagan zaytun yong‘oqlari to‘g‘rab idishga solinadi va ustidan zaytun yog‘i quyiladi. Aralashma o‘n kun davomida quyosh nuri ostida saqlanadi. So‘ngra, tayyor damlama ertalab va kechqurun og‘rigan joylarga surtiladi. Olma sirkasi venalar varikozi uchun foydali hisoblanadi. Kuniga ikki mahal suvda eritilmagan olma sirkasi jarohatlangan joylarga surtiladi. Bundan tashqari, bir stakan suvga ikki choy qoshiq olma sirkasi solib, kun davomida 2-3 marta ichiladi. Shuningdek, ikki choy qoshiq sirka bir stakan qaynoq suv bilan aralashtirilib, og‘rigan joylarga surtiladi. Olmaning "Antonovka" navi damlamasi qonni tozalash, uyqu va ishtahani yaxshilash xususiyatiga ega. Uch dona olma sovuq suvda yuvilib, sirli idishga joylashtiriladi va ustidan bir litr qaynoq suv quyiladi. Idish yopilib, to‘rt soat davomida jun mato bilan o‘rab qo‘yiladi. Keyin olmalar ezilib, damlama suzib olinadi va asal bilan ichiladi. 50 ml olma damlamasiga bir osh qoshiq asal qo‘shilib, nahorgi paytda va uxlash oldidan ichiladi. Bu usul venalar varikozi va tromboflebitda qo‘llaniladi. Tirnoqgul va qoncho‘pdan 75 g dan, gazanda va mavrakdan 100 g dan olinib, aralashma tayyorlanadi. Uch osh qoshiq yig‘mani kechqurun termosga solib, ustiga uch stakan qaynoq suv quyiladi. Ertalab damlama suzilib, kun davomida to‘rt mahal ovqatdan yarim soat oldin 150 ml dan ichiladi. Eman novdalari qaynatmasi venalarning varikozini davolashda foydalidir. Eman, tol va kashtan novdalaridan bir osh qoshiqdan olib, bir litr suvda yarim soat davomida qaynatiladi. So‘ngra, bir osh qoshiqdan moychechak, dalachoy va ittikanak o‘simliklari qo‘shilib, 12 soat davomida damlanadi. Suzib olingandan keyin, unga ikki osh qoshiq asal qo‘shiladi. Dastlabki ikki kun davomida 50 ml, keyingi ikki kun 100 ml, qolgan kunlar 150 ml dan ichiladi. Davolanish kursi 20 kun davom etadi. 5-10 kun tanaffus qilingandan so‘ng, muolaja takrorlanadi.

Ikkinchi yondashuv zamonaviy tibbiy metodlar haqida quyida atroflicha to‘xtalamiz. So‘nggi yillarda varikoz kasalliklarini davolashda minimal invaziv

usullarning jadal rivojlanishi ushbu patologiyani konservativ va estetik jihatdan samarali tarzda bartaraf etish imkonini yaratdi. An'anaviy ochiq jarrohlik (krossektomiya va safenektomiya) usullarining o'rnini hozirda endovenoz lazer ablyatsiyasi, radiochastotali ablyatsiya va mexanik-kimyoviy ablyatsiya bo'lgan muqobil texnologiyalardan foydalanilmoqda [5].

Endovenoz lazer ablyatsiyasi – bu metod birinchi marta 1999-yilda klinik amaliyotga joriy etilgan bo'lib, u safen venalarni yopish maqsadida yuqori intensivlikdagi lazer energiyasidan foydalanishga asoslangan. Protsedura paytida tomir ichiga ingichka lazer tolasi joylashtiriladi, u orqali fototermal energiya yuboriladi. Bu energiya tomir endoteliyasining destruksiyasini keltirib chiqarib, tomir devorining kollabiratsiyasiga va keyinchalik fibrozlanishiga olib keladi[6]. Lazer nurlanishining samaradorligi uning to'liq uzunligiga bog'liq bo'lib. Dastlabki bosqichlarda 810–980 nm to'liq uzunliklari qo'llanilgan bo'lsa, hozirda 1470 nm va 1940 nm to'liq uzunlikdagi lazerlar yuqori biologik to'qima selektivligi, kamroq termik shikastlanish va pastroq og'riq sindromi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, radial chiqishli (360° nur tarqatuvchi) lazer tolalarining joriy etilishi bilan termik energiya tomir devoriga bir xil taqsimlanadi[7]. Bu esa ko'proq kontrolli koagulyatsiyani ta'minlaydi.

Radiochastotali ablyatsiya - bu issiqlik asosidagi yana bir minimal invaziv metod bo'lib, unda radiochastotali to'liqlar yordamida tomir ichki devori isiydi va destruksiyaga uchraydi. Bugungi kunda eng keng qo'llaniladigan tizim — bu Medtronic ClosureFAST™ kateteridir. Ushbu tizim orqali har bir segment 120°C haroratda 20 soniya davomida ishlanadi[8]. Radiochastotali ablyatsiya usuli endovenoz lazer ablyatsiyasi bilan taqqoslanganda, bemorlarda protsedura davomida og'riqning kamligi, tez tiklanish, kamroq pigmentatsiya va paresteziya bilan ajralib turadi. Radiochastotali ablyatsiya yordamida safen venalarning muvaffaqiyatli yopilishi 5 yil ichida 88–93% holatlarda kuzatiladi. Bundan tashqari, bu usul bilan ambulator sharoitda davolash mumkin bo'lib, bemor operatsiyadan keyin tezda kundalik faoliyatga qayta oladi.

Mexanik-Kimyoviy Ablyatsiya — bu issiqlikdan xoli bo'lgan, nisbatan yangi endovenoz davolash usuli bo'lib, u 2010-yilda ishlab chiqilgan va ClariVein® tizimi orqali amalga oshiriladi. Usul ikki komponentning sinergetik ta'siriga asoslangan: mexanik jarohat va kimyoviy sklerozant ta'siri. Kateterning rotatsion harakati tomir devoriga mexanik zarba beradi, bu paytda tomir ichiga polidokanol kabi sklerozant modda yuboriladi[9]. Tomir endoteliysi mexanik va kimyoviy zararlanish natijasida obliteratsiyaga uchraydi. Mexanik-kimyoviy ablyatsiyaning eng katta afzalliklaridan biri — asab tolalari yaqin joylashgan kichik diametrli tomirlarda qo'llanilishi mumkinligi, chunki bu usulda termik shikastlanish yo'q. Klinik sinovlarda mexanik-kimyoviy ablyatsiya usuli bilan 1 yillik tomir yopilish ko'rsatkichi 90% ga yetgani qayd etilgan. Protsedura lokal anesteziyasiz ham bajarilishi mumkin[10]. Biz o'z kuzatishlarimizda bu qo'llanilayotgan uslublar va halq tabobati dori vositalarini o'zaro taqqasladik. Fitoterapeftik davolash tabiiy o'simliklar asosida amalga oshiriladi va ko'plab bemorlar tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Ushbu yondashuv venalarning holatini yengillashtirishda samarali bo'lishi mumkin, ammo u ko'proq simptomlarni yengillashtirishga qaratilgan bo'lib, kasallikning sababini to'liq bartaraf etishda aniq natijalarga erishish qiyin. Bundan tashqari, fitoterapiya oddiy va xavfsiz usul hisoblanadi, ammo uning samaradorligi va tezkorligi zamonaviy davolash usullari bilan taqqoslaganda pastroq bo'lishi mumkin. Zamonaviy endovenoz davolash usullari (lazer ablyatsiyasi, radiochastotali ablyatsiya va mexanik-kimyoviy ablyatsiya) minimal invaziv metodlar bo'lib, yuqori samaradorlikka ega. Ushbu usullar venalarning tuzilishini tuzatib, kasallikni to'liq bartaraf etish imkonini yaratadi. Biroq, bu usullar yanada murakkab va qimmat bo'lishi, ba'zida og'riq va yana boshqa nojo'ya ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, tiklanish davri ham biroz ko'proq vaqt talab etishi mumkin.

Varikoz kasalligi – bu venoz tizimning surunkali yetishmovchiligi bilan bog'liq patologik holat bo'lib, unda venalarning kengayishi va qon aylanishining buzilishi kuzatiladi. Kasallik rivojlanishining asosiy omillari orasida irsiy moyillik,

uzoq vaqt davomida tik yoki o'tirib ishlash, gormonal o'zgarishlar, noto'g'ri ovqatlanish va kamharakat turmush tarzi muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, fitoterapeftik davolash tabiiy va xavfsiz bo'lsa-da, samaradorligi cheklangan va uzoq muddatli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Zamonaviy endovenoz davolash usullari esa yuqori samaradorlik, tez tiklanish va kamroq yon ta'sirlar bilan ajralib turadi, ammo ular ko'proq resurs va malaka talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmirzayev S. S. Flebologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy nashriyoti, 2018.
2. Веденский А.Н. Варикозная болезнь. Л., Медицина, 1983.
3. Ю.Л. Шевченко Ю.М. Стойко клиническая флебология. М., ДПК Пресс, 2016.
4. Karimov A. T. Tibbiyotda muqobil davolash usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Kucher V. V. "Flebologiyada zamonaviy usullar." – Tashkent: Ilm Ziyo, 2019.
6. Rutherford R.B. "Vascular Surgery." – Philadelphia: Elsevier, 2014.
7. Gloviczki P. et al. "Venous and Lymphatic Diseases." – Springer, 2020.
8. Bergan J.J., Bunke-Paquette N. "The Vein Book." – Oxford University Press, 2007.
9. <https://www.clarivein.com>
10. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/>